



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

2022-yil 06 oktyabr № 45/01-04/3-6954 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko‘chasi, 107-B



**O‘zbekiston Respublikasi
Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni
rivojlantirish agentligiga**

**Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining kompleks ekspertizasi yakuniga ko‘ra
XULOSA**

| | |
|--|--|
| Xarid predmeti | 1900 dona elektro yuritmal (standart o‘rindiqli 1700 dona hamda keng o‘rindiqli 200 dona) nogironlar aravachalari |
| Buyurtmachining murojaat raqami va sanasi | 2022-yil 3-oktabrdagi 08-01-04/1624-son ariza (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK (keyingi o‘rinlarda – Markaz) saytidagi ro‘yxat raqami 38801-son) |
| Buyurtmachi | O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi |
| Xaridni amalga oshirish uchun asos | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy – ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining 2022 yil 4 oktabrdagi 08-01-04/1637 – son “Nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarni reabilitatsiya texnika vositalari (elektro yuritmal aravacha hamda mukammallashtirilgan elektro yuritmasiz aravacha)ni sotib olish xarid summasi parametrlari” talabnomasi |
| Moliyalashtirish manbai | Byudjet mablag‘lari |
| Buyurtmachi tomonidan belgilangan boshlang‘ich narx | 15 200 000 000,0 so‘m (QQS bilan) |

Ekspertiza uchun asos

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-son va 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarorlari

Ekspertiza uchun to'lov miqdori va sanasi

Ushbu tender hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun haq undirilmaydi

Markaz nogironligi bo'lgan xotin-qizlar uchun 1900 dona elektro yuritmali (standart o'rindiqli 1700 dona hamda keng o'rindiqli 200 dona) nogironlar aravachalari xarid qilish bo'yicha (ishchi tartibida o'zgartirilgan) tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini kompleks ekspertizasi natijalariga ko'ra, e'tirozlar yo'q ekanligini ma'lum qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, buyurtmachi xarid jarayonlarini qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkazilishini, tender savdolarini amalga oshirish bo'yicha e'lonni davlat xaridlarining maxsus axborot portalida, ommaviy axborot vositalarida va o'zining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tender savdolarida ishtirok etishi uchun keng jalb qilinishini ta'minlashi lozim.

Qo'shimcha tariqasida, shaffoflik va holislikni ta'minlash maqsadida, hamda ishtirokchilar doirasini kengaytirish uchun tanlov jarayonlari e'lon qilingan kundan boshlab 3 ish kuni oralig'ida Markazni habardor qilishingiz so'raladi.

Direktor


M. Allabergenov

Direktor o'rinbosari



V. Ismailov

Boshqarma boshlig'i




B. Muxammadiyev

Bo'lim boshlig'i



R. Mirzabekov

Bosh mutaxassis



J. Urunov